



INTERNET YOZISHMALARINING SHAKLI VA KO'RINISHI,
LINGVISTIK TAHLILI

Diyora Abduxamidova G'ulomjon qizi

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti 1-
bosqich magistranti*

abduhamidovadiyora08@gmail.com

ORCID: 0009-0002-9216-5605

Annotatsiya: Mazkur maqolada lingvistik tahlil tushunchasi, uning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda lingvistik tahlilning asosiy turlari sanab o'tilib, ularning til va nutq birliklarini o'rganishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, muallif atributlarini, xususan, matn muallifining ta'lim darajasi va gender xosligini aniqlashda lingvistik tahlilning imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar misolida oliy ma'lumotli ayollar nutqiga xos grammatik, leksik va uslubiy xususiyatlar ochib berilgan. Tadqiqot natijalari muallif shaxsini aniqlashga qaratilgan lingvistik ekspertiza, internet muloqoti va zamonaviy matnshunoslik uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Lingvistik tahlil, ijtimoiy tarmoq matnlari, uslubiy tahlil, internet muloqoti, grammatik xususiyatlar, gender xosligi.

Lingvistik tahlil – til, nutq birliklarini uni tashkil etuvchi qismlari, mazmuni vazifasi va boshqa xususiyatlari nuqtayi nazaridan tadqiq etish, til (nutq) birliklarining aniq holatini belgilash. Til hodisalari lingvistik tahlil asosida amaliy o'rganiladi. Lingvistik tahlil – olingan nazariy bilimlar asosida til haqidagi har bir fanning talabiga ko'ra konkret bir til yoki nutq birligini (so'z yoki gapni) parchalab o'rganishdir¹.

¹ Кудратов Т., Нафасов Т. Лингвистик таҳлил – Т.: Ўқитувчи, 1981. – Б. 5.



Lingvistik tahlilning quyidagi turlari farqlanadi: 1) leksikologik tahlil; 2) frazeologik tahlil; 3) semasiologik tahlil; 4) fonetik tahlil; 5) imloviy tahlil; 6) orfoepik tahlil; 7) morfem tahlil; 8) sintaktik tahlil; 9) punktuatsion tahlil; 10) uslubiy tahlil; 11) etimologik tahlil.

Tadqiqotchilar tomonidan muallifning bilim darajasi, gender xosligini aniqlashda sifat va miqdor tahlilidan foydalanishadi². Muallif atributlarini aniqlashga qaratilgan lingvistik tahlilda grammatik xususiyatlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn muallifining ta'lim darajasi va gender xosligini aniqlash uchun quyidagi lingvistik xususiyatlarni tahlil qilish lozimligini ta'kidlashadi:

- muallif soʻz boyligining xilma-xilligi;
- matnda koʻp komponentli soʻz va birikmalardan foydalanish;
- kesimlardan foydalanish;
- nutqning sintaktik murakkabligi;
- nutqning bogʻliqligi;
- nutqni qismlarga ajratish.³

Ushbu xususiyatlarga asoslanib, mutaxassislar quyidagilarni aniqlaydilar:

- ta'limning turli darajalariga xos: oliy, oʻrta,
- yosh toifasi: kichik, oʻrta, yuqori;
- gender xosligi: ayol, erkak.

Oliy ma'lumotli ayollar uchun deyarli grammatik, leksik va uslubiy xatolarning mavjud emasligi, shuningdek, oz sonli imloviy va punktuatsion xatolarning qoʻllanilishi xarakterli xususiyatlardan sanaladi. Bundan tashqari, ularning matni yuqori darajada semantikaga ega toʻliqlik, tarkibiy rasmiyatchilik, adabiy ishlov berish, lugʻat boyligi, adabiy soʻzlar va iboralar mavjudligi, terminologik iboralardan foydalanish, chuqur komponentlar orasidagi murakkab

² Etchell, A., Adhikari, A., Weinberg, L. S., Choo, A. L., Garnett, E. O., Chow, H. M., & Chang, S. -E. (2018). A systematic literature review of sex differences in childhood language and brain development. *Neuropsychologia*, 114, 19–31.

³ Woods, N. 1989. _Talking shop: sex and status as determinants of floor apportionment in a working setting. 'in Coates, J. and Cameron, D. (eds.) 1989. *Women in Their Speech Communities*. –P. 141-157.



iyerarxiya aloqalari bilan tizimlashib ketgan tuzilmalardan iborat ekanligi bilan ajralib turadi.

Biz ijtimoiy tarmoqlarda yozishmalarni tahlil qilar ekanmiz, oliy ma'lumotli ayollar profilida tugatgan muassasasi, faoliyat yuritayotgan ish joyi haqida to'liq ma'lumot berilganligining guvohi bo'ldik. Ayni shu guruhdagi ayollar yozishmalari tahlil qilinganda quyidagi grammatik xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi:

Birinchidan, inversiya erkaklarga nisbatan ayollarda ko'p uchraydigan hodisa. Asosan, kesimdan oldin kelishi lozim bo'lgan gap bo'laklari kesimdan keyinga ko'chiriladi: – ... *Ozmuncha xalqning uyi buziladimi yo'lni kengaytirish uchun? – Kim olyapti usha uylani? – ... lekin baliq boshidan sasiydi, kim ruxsat beryapti hammasiga?*

Ikkinchidan, ayollarning matnlari uchun xatolarning ko'pligi, neytral sezgirlikning ustunligi, yuqori bo'lgan noyob takliflarning chastotasi, boshlang'ich darajadagi ma'lumot matnlariga ega predikativ birliklarning mavjudligi – bularning bari ayollar yozma nutqi uchun xos xususiyatlardir. Ayollar imloviy xatoliklar qilishda erkaklarga nisbatan faol. Ijtimoiy tarmoqlarda bitta munozarali mazvuga bildirilgan kommentlarda ayollar erkin holda dialeketizmlardan foydalanishi, natijada imloviy xatolarga ko'p yo'l qo'yilganligini kuzatdik:

... sirtidayam erke dib yozilgan buliwi mumkun lekin binga yowligida uydila kop lozim kiydrb kotta qiliwhan erke kishi xayotda erke bolishi kere min ayol kiwidan qanqa gao ewitadi soki yoki yomon gap wunga uxwaw gapla bunaqa gapla erke kiwiga yarawmidi (o'zgartirishsiz, aynan olindi) .

Gapning shakli tasdiq, pragmatik mazmuni inkor munosabatini ifodalovchi gaplardan foydalaniladi:

– *Shu qiz shu bolaga erga tegdiyam deylik. Dalshe-chi?! Baxtli bo'ladi-de! Ketigacha arttiradi!!! – ... borin, uwa megajin bn yoqalashin, uzizzi zurligizzi isbotlen, eriyizgayam nimaga gaplashvossan, dib har kun janjal kutarb duzaxga aylatiring uyyi. Keyin haaaamma sizga ogromnaya spasiba deb prinsessaga aylanib qolasizi-de, a birpasda?!*



Morfologik jihatdan ayollar nutqida ko‘proq olmoshlar, sifat va undov so‘zlar ko‘p qo‘llaniladi. Ingliz tadqiqotchisi Wool fikricha, ayollar nutqi sifatlar va olmoshlarning ko‘pligi bilan ajralib turadi:

–... *Axmoklar, shu betamiz kinoni olishga ketkazgan mablagiga kariyalar uyiga SOVGAsalom olib borsa duoda qolar ed. “Fffuuu!!! Nima kursatuv or-nomus degani qayerda qoldi?! Ulib ketinlar, ifloslar!!!shramadli holatku bu, daxshat, ujas, uyatsiz, bezbet, beti yuq”.*

Ayollarning so‘z birikmalarida hissiy jihatdan baholovchi qatlam ko‘proq:

– “ochiq oydin aytib, eshittirib turmush kursa buladi-ku!”, – “qaysi yuz bilan ayttiz shunaqa gaplani?!”, – “kimmidir oliyjanobligi darajasidan kelib chikib kuliga karab kolmasinchiqmagan jondan umid dip sitqidildan harakat qivurw kere” .

Ingliz tadqiqotchisi Coates ayollar nutqini tahlil qilar ekan, – minimal “response” degan termin bilan ayollar nutqining sintaktik xususiyatlaridan bir jihatini ko‘rsatib o‘tadi.⁴ Ushbu xususiyat jumalarning qisqa tuzilganligi, fikrlarga qarama-qarshiliklardan ko‘ra ko‘proq ijobiy fikr bildirish ustinligini ifodalaydi. Katta yoshli ayollar fikrning tasdiq liniyasidan borishadi. Inkor etiladigan fikr tasdiqdan so‘ng keladi. Ayollar nutqida o‘ziga ishonchdan ko‘ra ko‘proq qo‘llab-quvvatlashga xayrixohlik ustunlik qiladi. Murakkab sintaktik konstruksiyalar ishlatilmaydi. Quyida 25 va 46 yoshli ayolning o‘zaro muloqotini kuzatdik. Jumalarning soddaligi, aniqligi va qisqaligi katta yoshdagi ayol nutqiga xos. O‘rta yoshli ayolda esa mantiqiy bog‘lanishlarda uzilishlar, izchillikning yo‘qolishi, murakkab qo‘shma gap tiplaridan nisbatan ko‘p foydalanishi xarakterli xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi.

A: *Mandayam bola-chaqa bor, manam uyim joyim diyman, birolani quliga qarab qomiy diyman. Odamlaga uxshab tagimga kaptiva nomimga uy oberib quy divotganim yuq. Prosta hich kimni aralashuvisz narmalni yashashni istiyman.*

B: *To‘ri lekin, Siz vaziyatingizda bu qiyin, sizziyam tushunish kere. Nima istawvotti uzi sizdan?*

⁴ Coates, J. 1989. _Gossip revisited: language in all-female groups. ‘ in Cameron, D. and Coates, J. (eds.) 1989. Women in Their Speech Communities. 94-122. Longman.



A: bor yiqqan terganimni akalariga berarmushmiz. Nimaymush, bula aka-ukaymush, ajratmashmuman. Kechririb qo' yasiz, maniyam uy-joyim yuq bulib xoru xor bulib yurganimda it suramagan qattan olasan pulni, ma man yiqqanimni o, san kvartiramakvartira sarson yurmagin dib.

B: *Etmadizmi ushani?*

A: Ulani bilaman xotinini bir chizig'idan chiqmiydi, etganini qiladi, kere busa, otaona nima bupti, aka ukasidanam voz kechtirvoradi ilon. Gapi-gap. Issusovu qivoganmi qaynonamlayam ushani diydi faqat, bizani uylamayidi. Bilasmi, eng alam qiladigani, usha xotini ittan man erlabagacha javob kutganamn, arzimagan pul surab. Berdimi? Yuq uzimiz uy omoqchimiz. Boshingda uying tegingda moshining bor, ulib qomasding, nomard. Manam quziqorinmasman. Anoyisini topibdi, bir tin bermiman. Bilsin u nokur, qanqa bulishni

B: *Sabrli bulishingiz kere. Hayot hali oldinda. Ko'rdingizmi, charxpalak dunyo bu. Hali sizgayam qaytadi*

Ayollarda nutqiy vaziyatlarning hosil qilinishida miya faoliyatining rolini tadqiq etgan olimlar erkaklarnikidan farqli o'laroq har ikkala yarimsharda joylashgan maydonlarning ma'lum bir qismi javob berishini isbotlashgan. Ayollarda nutq uchun chap yarim sharning frontal qismida joylashgan maxsus maydon, miyaning o'ng yarim sharida esa biroz kichikroq maydon javob beradi. Bir vaqtning o'zida ikkita yarim sharda nutq sohalari mavjudligi ayollarga nutqni yaxshiroq o'zlashtirishga imkon beradi. Sintaksik buzilishi atayin tinish belgilaridagi xatolar bilan bir xil chastotada sodir bo'ladi. Shunisi e'tiborga loyiqki, u jumla ichidagi so'zlarning tartibini buzishdan, ba'zan esa matnni jumlalarga ajratishdan, qisqalikdan iborat.

1. Murakkab sintaktik konstruktsiyalar o'rniga oddiylardan foydalanish mumkin. Iboralar va ergash gaplar bilan ifodalangan holatlar kamdan kam qo'llaniladi.

2. Taqdimot uslubini soddalashtirish. Uslubni soddalashtirish uchun, qoida tariqasida, ular so'zlashuv, kundalik uslubning til vositalaridan, masalan, xalq tilidan foydalanadilar.



3. Uslubni maskalash uchun stereotipik iboralar, oldingi jumlaning soʻnggi soʻzining har bir jumlasidagi takrorlashlar, jumla boshlanishining bir xil turi va boshqa uslubiy xatolardan foydalanish mumkin.

4. Oddiy til vositalaridan foydalanish. Odatda, ilmiy yoki rasmiy-ishbilarmonlik uslubi bilan ishlaydigan shaxslar baʼzan maskalanish maqsadida oddiy, soʻzlashuv yoki epistolyar uslubga xos vositalarga murojaat qilishadi. Bunday holatlarda hukmlarning oʻrtacha davomiyligi qisqartiriladi. Shu bilan birga, matni xatboshilarga boʻlish qobiliyatlari anʼanaviy ravishda saqlanib qoladi, maskalanish maqsadida maʼlum bir odam tomonidan kamdan-kam ishlatiladigan maqollar qoʻllashga harakat qilinadi.

5. Matnning arxitekturasi, yaʼni uning umumiy tuzilishi baʼzan oʻzgarishlarga uchraydi. Mutaxassis amaliyoti shuni koʻrsatadiki, yozma nutqni yashirish uchun koʻpincha imlo va leksik xususiyatlar oʻzgarishga uchraydi. Biroq, lingvistik meʼyorlarning buzilishini anglatuvchi belgilar nafaqat oddiy yozuvda, balki boshqa belgilar ataylab oʻzgartirilganda ham barqarorligini saqlaydi⁵.

Bugungi kunda internetda muloqot qilishning bir necha turlari mavjud boʻlib, ulardagi muloqot jarayonida verbal va noverbal vositalardan foydalanilmoqda. Dunyoda yozishmalarda ogʻzaki boʻlmagan muloqot haqida juda koʻp tadqiqotlar oʻtkazildi – biz suhbatdoshni matnga qarab qanday qabul qilamiz. Bizning olimlarimiz xabarlar uzunligi erkaklar va ayollar oʻrtasida qanday farq qilishini, emodjilardan foydalanishini, shuningdek, oʻzaro taʼsirning yangi turiga reaksiyasini aniqlashga qaror qilishdi. Bu yerda hamma narsani oldindan aytish mumkin boʻldi: xabarlar uzunligi erkaklarnikiga qaraganda ayollar uchun uzunroq, ayollar kulgichlardan tez-tez foydalanadilar va erkaklar har doim ham ular nimani anglatishini tushuna olmaydi. Binghamton universitetidan Seliya Klin (Seliya Klin) boshchiligidagi amerikalik olimlar (The Washington Post nashriga koʻra) Internetda tez-tez yozadigan 126 respondent bilan suhbatlashdi va xabar oxiridagi nuqta ularga

⁵ Xotamova G.S. Oʻzbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda ayollar yozma nutqining grammatik xususiyatlari // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 3 | 2022 ISSN: 2181-1385. – B. 533-540. https://t.me/ares_uz



javobning sovuqligi haqida gapirib berishini aniqladilar.⁶ Va bu javob qanchalik qisqa bo'lsa, u shunchalik yorqinroq namoyon bo'ladi. Undov belgisi, aksincha, suhbatda jonli ishtirok etish va suhbatdoshlarning hissiyotini ko'rsatib beradi. Ammo nuqtalardan tashqari, his-tuyg'ularingizni yozma ravishda yetkazishning boshqa usullari mavjud. Qavslar soni xabarni yozgan odamning turli his-tuyg'ularini bildiradi. Qavslar qanday axborot tashiydi?

) Bitta qavs – suhbatdoshni qabul qilishni, u bilan muloqot qilishdan zavqlanishni bildiradi.

)) Ikki qavs – bu kulgili, suhbatdosh jilmayib qo'yadi.

))) Uch yoki undan ortiq qavs ichida shunday deyiladi: Siz bilan muloqotdan xursandman (va sizga ham yaxshi kayfiyat ulashishni xohlayman). Qavslar qatoridan so'zlardan keyin his-tuyg'uni qanday baland va jo'shqinligini bilish mumkin. Ammo endi hamma narsa yana o'zgarimoqda: matnni qavslarga qaraganda ancha yorqinroq bo'yaydigan juda ko'p qiziqarli, gapiradigan kulgichlar mavjud.

Barcha foydalanuvchilar eng ko'p foydalanadigan noverbal vositalarga rasmlar, giflar, stikerlarni olishimiz mumkin bo'ladi. Ayni bu vositalar ham qandaydir axborot tashishga, til egalarining bir-birlari bilan ma'lumot almashishiga ko'mak beradi.

“Emodjilar” adresantning qabul qiluvchiga ijobiy munosabatini shakllantirishga yordam beradigan ma'lum bir signal funksiyasini bajaradi.

Izlanishlar natijasiga ko'ra, yozishmalarda tez-tez emodji yoki rasmdan foydalanish – boshqalar oldida so'zlaring ta'sir kuchini kamaytiradi hamda kishi nufuzini tushiradi.

Turli rasm va belgilardan foydalanish – odamlar tomonidan ochiqlikka intilish, norasmiy munosabatlar va do'stlashishga tayyor turishni anglatadi. Har doim do'st va hamkor izlash esa, odatda, jamiyatda obro'yi kam bo'lgan kishilarga xosdir... Olimlar xulosasiga ko'ra, emodzi va “gif” suratlar odamlarni yaqinlashtirishga, so'zlar esa masofa saqlashga xizmat qiladi. Ya'ni jamiyatga ta'siri

⁶ <https://www.psych.ru/neverbalnoe-obshhenie-v-sotsialnyh-setyah/>



kam bo‘lgan kishilar unga ta’siri kuchliroq bo‘lganlar bilan yaqinlashishni istaydi. Nufuzli kishilar esa aksincha, boshqalardan masofada turishni xohlaydi. Ushbu tushunchaga asosan, muloqotda tez-tez sur’atlardan foydalanayotgan kishining suhbatdosh oldida nufuzi tushadi.

Izlanish natijasiga ko‘ra, yozishmani faqat so‘zlar yordamida olib borgan kishi emodji va suratlardan foydalanganga nisbatan, kuchli va obro‘yli insondek tuyuladi. Lekin kishi o‘z suhbatdoshining unga yaqinlashish yoki uzoqlashish istagi borligini oldindan bilsa, so‘z yoki emodjilarning ahamiyati yo‘q.

Qachon emotsiyadan ko‘proq foydalanish zarur:

1. Norasmiy do‘stona yozishmalarda.
2. Tuyg‘ular toshib ketganda va so‘zlar yetarli bo‘lmaganda.
3. Yaqin do‘stlar bilan muloqotda.

Bu shoshilinch e’tiborni talab qiladigan muhim xabarlarini ko‘rinadigan qilishning juda oson va qulay usuli. Siz o‘zingiz uchun yaqin insonlar bilan ko‘proq emotsiyalar orqali muloqot qilsangiz muloqotingizni samimiy bo‘lishini ta’minlab beradi;

Qachon emotsiyasiz muloqot yaxshiroq:

1. Ish yozishmalarida.
2. Chet elliklar bilan muomala qilishda.
3. Hissiyotlar muhokama qilganda.

Esingizda bo‘lsa, emotsiyalar – bu ziravor, asosiy tarkibiy qism emas. Xatingizga ta’sirchanlik berish uchun siz ulardan juda ozchiligiga muhtojsiz.

Inson har doim ham his-tuyg‘ularini tanish so‘zlar bilan ifoda eta olmaydi, ba’zida hatto eng chiroyli iboralar ham suhbatning mohiyatini aks ettirmaydi. Va keyin suhbatning mavzusi yo‘qoladi, chunki ekranning boshqa tomonida joylashgan suhbatdosh hech qachon telepatik odam emas va fikrlarni o‘qimaydi. Onlayn yozishmalar - bu shaxsiy suhbatdagi kabi hissiyotlar va ularni ifoda etish qobiliyati muhim rol o‘ynaydigan suhbatning maxsus turi. Raqib yuz ifodalarini, qo‘l



harakatlarini ko'ra olmaydi, ajablanadigan yoki so'roq qilingan intonatsiyalarni eshitmaydi. Aynan o'shanda kulgichlar foydali bo'ladi.

His-tuyg'ularni ifodalash uchun smayliklardan foydalanish ba'zida so'zlardan ko'ra yoqimliroq va ma'qulroqdir. Jumladan, kimdandir jahlimiz chiqib turgan paytda yoki asabiylashganimizda noo'rin so'zlarni ishlatib suhbatdoshimizning diliga ozor berib qo'yishdan ko'ra smayliklar orqali vaziyatimizni tushuntirib, suhbat jarayonini keskinlikdan olib chiqishimiz mumkin. Bundan tashqarismayliklar shoshilinch vaziyatlarda aniq maqsadni ifodalashda ham qo'l keladi. Butun boshli jummalarni klaviaturadan harflar terib kiritish o'rniga tayyor smaylik yoki tasvirli stikerlardan foydalanish anchayin vaqtimizni tejaydi. Ammo ko'plab foydali jihatlari borligiga qaramasdan, smayliklardan foydalanish barcha uchun ham birdek yoqimli emas. Ba'zida o'rta yoshlilar va yoshlar o'rtasidagi muloqot jarayonida qo'llanilgan smayliklarni tushunish borasida turlicha qarashlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, suhbat jarayonida qo'llanilgan emodjilar suhbatning ma'no ko'lamini hamda ifodalilik darajasini ochib beradi. So'zlar o'rniga smaylik va stikerlardan foydalanish suhbat jarayonini mazmunli, yengil va taasurotlarga boy bo'lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ilmiy adabiyotlar:

1. Coates, J. 1989. *Gossip revisited: language in all-female groups.* 'in Cameron, D. and Coates, J. (eds.) 1989. *Women in Their Speech Communities.* 94-122. Longman.
2. Etchell, A., Adhikari, A., Weinberg, L. S., Choo, A. L., Garnett, E. O., Chow, H. M., & Chang, S. -E. (2018) . A systematic literature review of sex differences in childhood language and brain development. *Neuropsychologia*, 114, 19–31.
3. Woods, N. 1989. *Talking shop: sex and status as determinants of floor apportionment in a working setting.* 'in Coates, J. and Cameron, D. (eds.) 1989. *Women in Their Speech Communities.* –P. 141-157.



4. Xotamova G.S. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda ayollar yozma nutqining grammatik xususiyatlari // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 3 | 2022 ISSN: 2181-1385. – B. 533-540. https://t.me/ares_uz
5. Қудратов Т., Нафасов Т. Лингвистик таҳлил – Тошкент: Ўқитувчи, 1981.

Internet manbalar

6. <https://www.psyh.ru/neverbalnoe-obshhenie-v-sotsialnyh-setyah/>